ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Osiyo xalqaro universiteti III bosqich talabasi

Shavkatova Gullola

Mavzu: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati ularni ta’lim samaradorligiga ta’siri hamda o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishdagi roli yoritiladi.Interfaol metodlarning afzalliklari dars jarayonidagi qo‘llanish shakllari va kuzatilayotgan natijalar ilmiy pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: Interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, boshlanğich ta’lim, o‘quvchi faolligi, pedagogik texnologiya, hamkorlikda o‘qitish

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh xususiyatlariga ko‘ra faol, qiziquvchan va taqlidchan bo‘lganliklari sababli, dars jarayonida ularni faol ishtirok etishga undovchi metodlardan foydalanish muhimdir. Interfaol metodlar aynan shu ehtiyojni qondiradi.Shu bois boshlanğich sinflarda an’anaviy o‘qitish usullaridan tashqari interfaol metodlardan keng foydalanish dalrzab ahamiyat kasb etmoqda.Interfaol metodlar o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirokchisiga aylantiradi

Asosiy qism

Interfaol metod -bu o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi asosida bilim egallash jarayonidir.Ushbu metodlar o‘quvchilarni fikrlashga,muhokama qilishga,mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.Boshlanğich sinflarda qo‘llaniladigan interfaol metodlar :

Aqliy hujum – muammoni turli nuqtai nazardan hal etishga yordam beradi.

Klaster – tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlaydi.

BBB Bilaman – Bilishni xohlayman – Bildim– o‘quvchilarning mavzu yuzasidan bilimini tizimlashtiradi.

Rol o‘ynash – ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Insert metodi – matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi

Masalan, ona tili darsida “Klaster” metodi orqali o‘quvchilar so‘z turkumlarini guruhlab, ularning xususiyatlarini mustaqil aniqlaydilar. Matematika darsida “Aqliy hujum” yordamida masala yechishning bir nechta usullari ishlab chiqiladi.

Interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishi ortishi, bilimlarni ongli o‘zlashtirish,muloqot madaniyati va jamiyatda ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishi ilmiy dalillar asosida izohlanadi.Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki,interfaol metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish boshlanğich ta’lim sifatini oshiradi, o‘quvchilarning faolligini ta’minlaydi hamda ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishga imkon yaratadi

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Xulosa

Bishlanğich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning bilish jarayonini faollashtiradi va ularning mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.Shuning uchun zamonaviy boshlanğich ta’lim jarayonida interfaol metodlardan tizimli va maqsadga muvofiq foydalanish muhimdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Azizxo‘jayev N.N pedagogik mahorat va pedagogik texnika -Toshkent TDPU nashriyoti ,2017

2.Karimov l.A Barkamol avlod O‘zbekistpn taraqqiyotining poydevori -Toshkent sharq 1997

3.Mirziyoyev SH.M Ta’lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosiy omili Toshkent ,O‘zbekiston 2020

4.Qodirov A, Tursinov S Boshlang‘ich ta’lim metodikasi -Toshkent; Innovatsiya ,2020

5.Saidahmedov N.S Zamonaviy pedagogik texnologiyalar -Toshkent Fan va texnalogiya 2018

6.Vygitskiy L.S Bolalar psixologiyasi va ta’lim nazariyasi -Maskva 2015